

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar – Kon-geologiya vazirligi va tizimosti korxonalari xodimlari;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish – Kon-geologiya vazirligining "Korrupsiyaga qarshi siyosati", "Odob-axloq kodeksi", "Manfaatlar to'nashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom", "Sovg'a berish va olish siyosati" kabi ichki me'yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi jarayonida bevosita ko'maklashish;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61¹, 193¹ va 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar.

3. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

4. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

6. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarligi haqida aloqa kanallari orqali xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantiriladi:

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarga esdalik sovg'a qiymati - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha;

- korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha;

- pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yuz baravarigacha miqdorda.

9. Xodim korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

10. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur xabar tasdiqlanganda;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

11. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tizim tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Kon-geologiya vazirligi huzurida tuzilgan Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

13. Maxsus komissiyaning tarkibi Kon-geologiya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlanadi va Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida rag'batlantirish amalga oshiriladi. Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

soha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissiyi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish;

tizimda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga muvosiisiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

14. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

15. Maxsus komissiya taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Kon-geologiya vazirligi buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

16. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosililigi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

17. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

18. Rag'batlantirish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida ijro uchun yuboriladi.

19. Maxsus komissiyaning raisi komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

20. Maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida ichki buyruq chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng besh ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng uch ish kuni ichida topshiriladi.

21. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi Kon-geologiya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

22. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning reestri Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan yuritiladi va har chorakda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hisobot berib boradi.

23. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

24. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.